

KO'NGILNING VATANI

Tursunov Abdurashid Buriyevich

ToshDO'TAU O 'zbek adabiyoti tarixi kafedrası stajor-tadqiqotchisi

a.b.tursunov@mail.ru telefon: +99891-511-77-55

Saidmurodova Hulkaroy Umid qizi,

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani 2-sonli maktab o'qituvchisi

Telefon: +998996717372

Javohirbozorov547@gmail.com

Annotatsiya. Husayniyning ushbu g'azalini tahlil qilish, avvalo, mumtoz adabiyotga qiziquvchilarni Husayniyning lirik merosidan xabardor qilish va shuning asnosida shoirning yuksak badiiy mahoratini, soz qo'llay bilishdagi qobiliyatini ommaga ko'rsatish maqsadidadir. Tahlil jarayonida, hozirgi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib, o'quvchiga oson bo'lsin uchun ga'zal mazmuni sodda tilda ochib berilgan. Baytlardagi bugungi kunimiz uchun notanish bo'lgan so'zlarning har biriga alohida to'xtalangan. Bu esa, o'z navbatida, arxaik so'zlarning hozirgi kundagi ma'nosini bilish, g'azal ma'nolarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Kirish. Mumtoz she'riyatimizni o'rganish jarayonidan bizga ma'lumki, o'tmishda g'azalnavis shoirlar ko'p bo'lgan, deyarli barchalari uchun g'azal asosiy o'rinda turadi. Biroq ularning eng iste'dodlilarigina g'azalni san'at darajasiga olib chiqa olganlar. Ushbu g'azalning sharhiga kirishar ekanmiz, ana shu kamyob iste'dod sohiblari orasida Husayniyning ham o'z o'rni borligiga ishonch hosil qilamiz. Umuman, bu g'azalda shoir insonga xos xususiyatlarni va uning ichki kechinmalarini birgina ko'ngil timsoli orqali ochib berishga harakat qilgan. G'azalni tahlil qilishda baytlarda qo'llangan she'riy san'at turlari haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bu esa yanada kishiga zavq bag'ishlaydi hamda hozirgi kun o'quvchisi uchun she'rda ifodalangan ma'nolarni tushunishni osonlashtiradi. Bir so'z bilan aytganda, quyidagi g'azal Husayniy siymosining shoir sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanmog'i uchun asos bo'lib xizmat qiladi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Telbarab itgan ko'ngulni istadim har yon borib,
Ko'h-u daryo-vu biyobonlarni bir-bir axtorib .

Toptim ersa o'lturubtur yuz g'am-u anduh ila,
Yor zulfidin batarrak ro'zg'orin to'ngtorib .

Vahki, so'rg'ach holini, tinmay to'kib dedi sirishk,
Yetti gardundin fig'on-u o'tlug' ohin o'tkorib.

Vomiq-u Farhod-u Majnun mehnatimga to'zmayin
Kuydilar ohim o'tidin har biri bir yon borib.

Men dag'i to'zmay aning istab vatan deb kuymakin,
Yuz tuman taklif ila kelturdim oni yolborib.

Kelturub chok aylabon ko'ksumni, soldim o'rnig'a,
Furqat-u kuymak o'tidin borisidan qutqorib.

Ey Husayniy, ul kelib tutg'ach visoli jur'asin,
Tindurub ko'nglumni men ham, ichtim oni sipqorib [2, 6].

Kalit so'zlar: ko'ngil, ko'h, daryo, biyobon, telbarab itgan, tanosub, g'am-anduh, yor zulfi, tashbeh, sirishk, fig'on, Vomiq, Farhod, Majnun, taklif, mubolag'a, furqat, o't, chok aylabon, visoli jur'asin, maqta', nido.

G'azal an'anaviy yetti baytdan iborat bo'lib, ishqiy (oshiqona) mavzuda bitilgan. G'azalning radifi yo'q, qofiyasi esa mutlaq qofiya, ya'ni o'zakdan keyin qo'shimchalar kelgan so'zlardan tashkil topgan. Qofiyaning raviysi "r" harfi hisoblanadi. Husayniyning ushbu g'azali ham turkiy she'riyatda alohida o'ringa ega bo'lgan, eng ko'p qo'llaniladigan "ramal" bahrida yozilgan bo'lib, "ramali musammani mahzuf", ya'ni "foilotun – foilotun – foilotun – foilun" vaznida yozilgan [6, 113]. Taqte'si: – V – / – V – / – V – / – V – [6, 162-164].

G'azalning matla'si bevosita lirik qahramonning o'z holatini bayon etishi bilan boshlanadi:

**Telbarab itgan ko'ngulni istadim har yon borib,
Ko'h-u daryo-vu biyobonlarni bir-bir axtorib.**

Telbarab itgan yoki yitgan – telbalanib, o'zini unutish darajasiga yetgan (aqlidan ozgan, jinni bo'lgan) yo'qolib qolgan, kelmas bo'lib ketgan, topilishi mushkul bo'lgan demak [3, 500]. "Ko'h" – forscha: tog' [3, 274], "biyobon" – forscha: sahro, cho'l, dasht [3, 100]. Baytdagi boshqa so'zlar tushunarli.

Baytning birinchi misrasida "telbarab itgan" yoki "yitgan" ko'nglining bedarak ketishi tasvirlanib, undan so'ng misra mazmuni oshiqning ishq dardidan shu ahvolga tushib qolgan ko'nglini har qayoqdan izlagani bilan davom etadi.

Ikkinchi misrada lirik qahramon ko'nglini har turli boshqa joylardan ham, ya'ni odatiy izlanadigan joylar (masalan, uylar, qishloqlar va h.k.lar)dan tashqari tog'lar, daryolar, biyobonlardan ham izlaganini so'zlaydi. Xullas, oshiq o'z ko'nglini shu darajada izlaydiki, odam qadami yetmagan joylar ham qolmaydi. **Ko'h-u daryo-vu biyobonlar...** Qolaversa, tog' – balandlik, daryo – chuqurlik, pastlik... – timsoli. Biyobon ham telba ko'ngil uchun mos va xoc joy... O.Avaznazarovning "Navoiy timsollari so'zligi" kitobida: "**Biyobon** – fors. 1. Sahro, cho'l. 2. tas. **a.** biyoboni g'aflat, g'aflat cho'li. G'aflatda bo'lmoq holi (ST). **b.** Tariqatda olg'a qadam qo'ymoq. **d.** Tariqatdagi voqea-hodisalar", – deya izohlangan [7, 38].

Bu misrani tahlil qilarkanmiz, nega bu endi ko'ngil telba bo'lgan ekan, degan savol tug'iladi. Aniqki, dunyoning o'zi o'tkinchi. Havoyi nafsimiz esa, istaymizmi yo'qmi, dunyo matohlariga moyildir. Ko'ngil esa aksincha, Haq taolo dargohiga oshiqadi. Agarki ta'riflanayotgan ko'ngil iymon lazzatini chinakam tuygan, nafsdan ustun bo'lsa, albatta. Shunday ekan, nafsning hadsiz istaklaridan bezgan ko'ngil u bilan (nafs bilan) bir vujudda turishni-da istamayotganday go'yo. Ana shuning sababidan ham ko'ngil telbalikni bo'yniga olib, allaqayoqlarga ketib qolgan... Haq taologa bo'lgan muhabbatning ta'siri natijasida dunyo mayllaridan voz kechib, misoli qalandarsifat, makonini tashlab chiqqan. Ammo bunday qarash, bizningcha, g'azal ma'nosidan kelib chiqib yondashilsa, unchalik to'g'ri emas.

Imom G‘azzoliy “Kimyoi saodat” asarida ko‘ngil podshoh, aql vazir ekanligini, podshoh vazir bilan bilan bamaslahat ish qilishi kerakligini ta’kidlaydi [24]. Tasavvuf ahli insonning o‘zini tanishi Allohni tanish yo‘lidagi bir bosqich ekanligini ta’kidlaydilar. Ularga ko‘ra, inson shaxsiyat va mohiyatdan iboratdir, mohiyatga yetishish Xudoga yetishish (muqarrablik) demakdir.

“Ki har ne olami sug‘roda mavjud,

Bori bu olami kubroda mavjud [9, 30].

O‘z vujudingga tafakkur aylag‘il,

Har ne istarsen, o‘zingdin istag‘il” [8, 301].

Bizningcha, ko‘ngilning o‘z joyi-vatanini tark etishiga sabab uning aqlga quloq solmasligi, nafsoniy istaklarga, ho-yu havaslarga qul bo‘lganligi asosiy sabab bo‘lgan. Xullas, nima bo‘lganda ham, ko‘ngil aqldan ozganligi sababidan ko‘ngil o‘z o‘rnidan кетиб қолган, ўз жойида эмас. Aslida qalb joyida turadi, ammo uning yonidan aqlning ketib qolishi sababli uning haqiqiy podshohlik maqomiga ziyon yetadi. Uning haqiqiy o‘rni aqlning yonida ediki, bu vajhdan yoxud xatolik nuqtayi nazaridan qalbni ketgan deb hisoblaydilar. Dalil o‘laroq Al-Hakim at-Termiziy (r.a.)ga murojaat qilamiz:

“... – Qalb joyida (turadi). Qalbdagi aql ketib qoladi. Qalbdan aql ketib qolsa, e’tiborsiz va behuda vaqt sarflovchi bo‘lib qolasan, – dedim.

– Aql qayerga ketadi? – dedi.

– Vataniga, – dedim.

– Vatani qayerda? – dedi.

Bosh miyada. Uning porlashi ko‘ksda, uning ikki ko‘zi oldida bo‘ladi. Qachon fuodning ikki ko‘zi oldida porlasa, Allohdan sinov o‘laroq kechinmalar keladi. So‘ngra kechinmalar fikrga aylanadi...

...Agar ko‘ksing dunyo ishlari ichida – turli o‘tin, qamish, papirus, yulg‘unlar bo‘lgan changalzor yoki qalin o‘rmon kabi bo‘lsa, oyog‘ing ostini ko‘rishdan boshqa nimaga ham qodir bo‘larding?

...Ko‘ks ham shunday. Qachon mashg‘ul qiluvchi narsalardan forig‘ bo‘lsa, unga nur keladi” [1, 54-55].

Baytdagi tog‘, daryo, biyobonlar so‘zlari tanosib san’atini yuzaga keltirgan.

Ga‘zalning ikkinchi bayti birinchi baytni davom ettiradi:

**Toptim ersa o‘lturubdur yuz g‘am-u anduh ila,
Yor zulfidin batarrak ro‘zgorin to‘ngtorib.**

“Anduh” – (forscha) g‘am, qayg‘u [5, 21], “zulf” – ayollar yuzining ikki chakkasida, quloqlari atrofida jingalak holda osilib tushgan sochlari [5, 103], “ro‘zgor” – bu so‘z lug‘atda zamona yoki ahli zamondoshlar, hayot, qismat ma’nolarini bildirib kelgan [5, 237]. Shuningdek, bu so‘z turmush, tirikchilik, kun kechirish ma’nolarini ham bildiradi [3, 442]. Bu o‘rinda esa ko‘proq turmush, tirikchilik, kun kechirish ma’nolarida qo‘llangan.

Baytning birinchi misrasida lirik qahramon yuqoridagi joylarni qidirib, nihoyat, ko‘ngilni topganini, ko‘ngil esa yuz g‘am-u anduh bilan turganini aytadi. Ammo shoir uning qayerdan topilganini aytmaydi. Balki u manzil-u makonga xos emasdir... Bu misrada ko‘ngilning holati, uning qay ahvolda ekanligi aytiladi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, oshiq ko‘ngilni topib borib qarasaki, ko‘ngil bir dunyo dard va alam bilan oshno tutinib o‘tiribdi. Shu darajada tushkunlikka tushganidan g‘am va anduhdan o‘zga narsani bilmay qolgan go‘yoki. (Real hayotdan ham

bilamizki, inson nogahon hayot zarbalariga uchrab tushkunlikka tushsa, g'am-anduhlarini hechkinga aytolmay, qayerlargadir, kimsasiz yerlarga ketgisi keladi. Bu g'azalda ham shoir ko'ngil timsoli orqali inson ichki kechinmalarini, kishilar tabiatini ochib berishga harakat qilgan deyishimiz mumkin bo'ladi.)

Ikkinchi misrada ko'ngilning ahvoli birinchi misradagidan ham yaqqolroq tasvirlanib, ahvolining yanada yomonroq ekanligi aytiladi. Misrani tahlil qiladigan bo'lsak, buni aniqroq anglaymiz. Yorning zulfi bu yerda chigallikni, uzunlikni, ko'plikni, qoralikni ifodalash uchun xizmat qilyapti. Misra davomida aytilyaptiki, Yorning sochi (...dunyo)dan ham battarroq, ya'ni qoraroq, ko'proq, chigalroq, ro'zg'orini to'ntarib turibdi. Jaydaricha aytganganda, qisqasi, qozoni to'ngkarilgan (Hayotdan xafa bo'lgan, ishi tugagan, o'ziga e'tibor bermay qo'ygan, dardlarini, hasratlarini yoyib o'tiribdi ma'nosida).

Shoir baytda g'am, anduh so'zlaridan foydalangan holda tanosib san'atini qo'llagan.

Uchinchi baytni shoir "vahki" so'zi bilan boshlaydi:

**Vahki, so'rg'ach holini, tinmay to'kib dedi sirishk,
Yetti gardundin fig'on-u o'tlug' ohin o'tkorib.**

"Sirishk" – ko'z yoshi [5, 253], "gardun" (forscha) – osmon, falak [5, 64], "fig'on" (forscha) – faryod, yig'i [5, 296].

(Ushbu va keyingi baytda shoir savol-javob usuli orqali lirik qahramon va uning ko'ngli o'rtasidagi nozik hollarni tasvirlashga harakat qiladi. "Vahki" so'zi "oh", "eh" kabi undovlardan biroz farqlanadi. Birgalikda qo'llanganda "voh" "oh"dan keyin keladigan undov so'z bo'lib, kuchliroq darajadagi hissiyotni ifodalaydi. Shoir bu so'z bilan qo'rquv, chorasizlik, afsuslanish, yuqori darajada hayratlanish kabi ma'nolarni beradi. (Ushbu baytda dardli ko'ngilning so'zlash oldidan va bu jarayonda chuqur hayajonga tushgan holati o'z ifodasini topgan, ya'ni ko'zlari yoshga to'lgan, fig'oni va o'tlig' ohi yetti osmondan o'tib o'rlab borayotgan qalb manzarasi mubolag'ali tarzda o'z ifodasini topgan.)

Baytda "fig'on" hamda "oh" so'zlari bilan tanosib san'ati va ikkinchi misrada oh, faryodlari yetti osmondan ham o'tib ketganini aytish orqali mubolag'aning go'zal namunasi qo'llangan. Qolaversa, ko'ngilga inson sifatleri berilishi orqali jonlantirish san'ati qo'llanganligini aytish mumkin.

G'azalning to'rtinchi bayti uchinchi baytni bevosita davom ettiradi:

**Vomiq-u Farhod-u Majnun mehnating'a to'zmayin,
Kuydilar ohim o'tidin har biri bir yon borib.**

"Vomiq" – musulmon xalqlarining og'zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan an'anaviy epik asar qahramoni [3, 129], "mehnat" (ar.) – mashaqqat, og'irchilik [5, 325]. "To'zmayin" – bu yerda chiday olmaslik, bardosh berolmaslik ma'nosida.

Ko'ramizki, ko'ngil o'z ahvolini, ko'rgan-kechirganlarini bir-bir ayta boshlaydi. Hatto ko'ngilning ohidan xabardor, uning dardini boshidan kechirgan Vomiq, undan keyin Farhod, keyin esa Majnun ham bu dardga chidayolmay hammasi har tomonga bir-bir borib kuydilar, deydi. Xuddiki sham nurida kuygan parvonalar biri u tomonga, biri bu tomonga yiqilib qolgani kabi. Bu o'rinda birinchi navbatda Vomiq, keyin Farhod, keyin Majnun timsollari zikr etilishining ham o'ziga yarasha sabablari bor. Buni ularning ishqdagi martabalar bilan ham bog'liq ekanligi bilan ham izohlash mumkin. Bu izoh bayt uchun to'g'riroq bo'ladi, bizningcha. Demakki, ko'ngilning boshiga ishq tufayli tushgan sinov va mashaqqatlar shu darajada katta

ekanki, yuqorida nomlari keltirilgan buyuk oshiqlar ham bu mashaqqatlarni ko'rib, o'z dardlarini unutilib yuborishdi va oxir-oqibat uning dardlariga kuyib qolishdilar.

Mazkur baytda Vomiq, Farhod, Majnun obrazlari orqali talme va uyalash-jamlash (ishq jamlayapti), mubolag'a san'atlari qo'llangan.

Beshinchi baytda lirik qahramon aytadiki:

**Men dag'i to'zmay aning istab vatan deb kuymakin,
Yuz tuman taklif ila kelturdim ani yolborib.**

“Tuman” – o'n ming sonini bildirgan tarixiy o'lchov so'z. “Yuz tuman” – million.

Men ham, ya'ni lirik qahramon ko'ngilning vatan deya kuyib, vatanini izlashiga chidayolmay, unga necha takliflar bilan yolvorib, o'z vataniga olib keltirganini aytadi. Aslida ko'ngil “ketib” qolgani uchun o'z vatanini, yuqoridagi bir fikrga ko'ra, aqlning yonida turgan holini eslayolmaydi. Chunki u aqldan begona bi holga yo'liqqandir. Shu sababli ham oshiq uni juda ham ko'p qidirganligi matla'dan ma'lum edi. Lirik qahramon ko'ngilni topganidan so'ng uning oh-u fig'on chekayotganini ko'rdi. Uning bu holini bartaraf etish uchun ko'ngilni vataniga olib borishini aytsa-da, u vatanini eslayolmaydi. Natijada oshiq unga hadsiz takliflar bilan yolvorishiga to'g'ri keladi. Bu yolvorishlardan so'ng axiyri ko'ngilni o'z vataniga olib borishga muvaffaq bo'ladi.

Oltinchi baytda, lirik qahramon ko'ngilga va'dalar berib olib kelgandan so'ng, ko'ksini chok qilib, ya'ni sitib ko'ngilni joyiga solib qo'yadi:

**Kelturub chok aylabon ko'ksumni, soldim o'rnig'a,
Furqat-u kuymak o'tidin, borisidan qutqorib.**

“Chok aylamoq” – yirtmoq, tilmoq, yaralamoq [3, 592], “furqat” – ayriliq, “bori” – barisi, hammasi, barchasi ma'nolarida kelgan.

Ikkinchi misrada uni joyiga solib qo'ygani ko'ngilni barcha judolik, kuyishlardan va barchasidan qutqarishiga sabab bo'lgan. Natijada, aqlini yo'qotib, o'z vatanini (o'rnini) eslayolmay qolgan ko'ngil o'z joyiga, ya'ni yigitning ko'ksiga joylashadi.

Shu o'rinda bir turk yozuvchisining bu g'azal ma'nosiga hamohang bo'lgan bir rivoyatini keltirib o'tsak. Bir yigitning ota-onasi qarilik sababidan judayam injiq bo'lib qoladi. Keyin yigit chol-kampirning bu holiga chiday olmay uydan chiqib ketadi. Ancha yo'l yurgandan keyin oyog'i iliq, yumshoq bir narsaga tegadi. Bu issiqqina yurak edi. Yigit hayron qoldi va yo'lida uchragan birinchi uyni taqillatdi. Zanjir orasidan qaragan noziknihol bir qizga: “Bu yurakni hozirgina shu yaqin oradan topib oldim, siznikimasmi?” – deya so'radi. Qiz esa uyalibroq, yuragini uch oy avval uchratgani bir bevafo berganini aytib, qoshnisiga uchrashib ko'rishni tavsiya qiladi. U ko'rsatgan uydan bir badavlat inson chiqib, yuragini dunyoga sotganini, qo'shni uyda yashaydigan majzub buning egasini bilishini ta'kidladi. Keyingi uydan chiqqan chol yigitning gaplarini eshitib, hamma narsasiga qo'shib yuragini ham Allohga berganini so'zladi. Yigitdan nega buni ota-onasidan so'ramaganini surishtirib, uning uch kun oldin uyidan janjal qilib chiqib ketganidan xabar topgan qariya yurakni yigitning ko'ksiga solib qo'yadi...

G'azalning lirik qahramoni ham ko'ngilning o'z joyiga, vataniga qaytishi uchun ko'p harakat qiladi. Avvalo, ko'ngilni izlab topadi, uning dardiga sherik bo'lib, keyingina uni o'z uyiga qaytarishga muvaffaq bo'ladi [10].

Maqta'da esa shoir o'z-o'ziga murojaat qilib, nido san'atini qo'llayapti, ya'ni "Ey Husayniy" deb baytni boshlamoqda:

**Ey Husayniy, ul kelib tutg'ach visoli jur'asin,
Tindirib ko'nglumni, men ham ichtim oni sipqorib.**

Bu baytda "jur'a" so'zi "qultum" ma'nosida kelgan. Baytda aytiladiki, oshiq ko'nglining qaytib kelishi, aniqroq aytadigan bo'lsak, ko'ngilni o'z egasi bo'lmish oshiq vujudiga qaytib kelishi (bu go'yoki oshiqning visol sharbatidan bir qultum ichganidek tasvirlangan) xuddiki yorning oshiqqa ko'rinish bermog'i kabidir. Ko'ngil keldi, uning kelishi go'yoki qadahda oshiqqa visol sharbati tutganday bo'ldi va oshiq shu sharbatdan bir qultum (jur'a) ichdi va ko'nglini xotirjam qildi. Maqta'da shoir shuncha mashaqqatlar bilan oxiri ko'nglini topganidan, uning visoliga erishganidan xursand bo'ladi. Hakim Termiziya ko'ra, aqlning nuri insonning ko'ksida, qalbning yonida porlasa...: "Keyin sohibi nurning quvvati miqdoriga qarab imkon qadar oliylikka – Alloh azza va jalla tomon sayrga aylanadi. Kimning muayyan maqomi bo'lsa, o'sha maqomiga qarab sayr qiladi" [1, 55].

"Endi bilki, albatta, Alloh taolo ko'ksni qalbing maydoni qilgan, qalbingga esa ma'rifatni solgandir. Ma'rifatning sevinchlari va sultoni ko'nglingdadir" [1, 56].

Ushbu g'azal inson hayotida ko'ngilning ahamiyati va o'rni, uning tarbiyasi, inson kamolotida doir vazifalari haqida mulohaza yuritishga undaydi. Birgina ushbu g'azal orqali Husayniyning ma'naviy boy olamiga, yuksak badiiy mahoratiga guvoh bo'lishimiz, mumtoz adabiyotimiz vakillari orasida o'z o'rniga ega sohir so'z san'atkori ekanligiga amin bo'lishimiz mumkin. Hazrat Navoiydek buyuk siymoga do'st bo'lgan zot bulardan-da ortiq fazilatlarga ega bo'lgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ат-Термизий, Ал-Ҳаким. Сарахс аҳли сўраган масалалар. Касбнинг баёни. – Тошкент: Нилol-Nashr, 2019. – 160 б.
2. Бойқаро, Хусайн. Жамолингдин кўзум равшан. – Тошкент: F.Фулom, 1991. – 26 б. 6
3. Рафиддинoв, Сайфиддин. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2023. – 656 б.
4. Ғазолий, Абу Ҳомид. Кимёи саодат. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019. – 432 б.
5. Ҳасанoв, Ботирбек. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – 376 б.
6. Ҳожиаҳмедoв, Анвар. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
7. Avaznazarov, Odiljon. Navoiy timsollari so'zligi. – Toshkent: Spektrum, 2024. – 288 b.
8. Навоий, Алишер. Лисонут тайр. Мукаммал асарлар тўплами. Ж. 12. – Тошкент: Фан, 1996. – 357 б.
https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Mukammal%20asarlar%20to'plami.%2012-jild.pdf
9. Навоий, Алишер. Фарҳод ва Ширин. Мукаммал асарлар тўплами. Ж. 8. – Тошкент: Фан, 1991. – 595 б.
https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Mukammal%20asarlar%20to'plami.%2008-jild.pdf
10. "Қалбимизнинг нури" китобидан / Тарж.: Абдуллоҳ Мурод Холмурод ўғли. <https://www.facebook.com/groups/my5clubnew/permalink/312181242535363/?app=fbl>